



MUSTAQILLIK DAVRIDA FARG'ONA VODIYSI OMMAVIY BAYRAM TOMOSHALARI TASVIRIY VA BADIY JARAYONLAR BORASIDAGI TAJRIBALAR.

Oxundedaev Xojiakbar Maxamadali o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI doktoranti

Xojioxon87@gmail.com

+99891 355 09 57.

Annotatsiya: *Mustaqillik davrida Farg'ona vodiysi ommaviy bayramlarning tasviriy jarayonining o'ziga xosligi, tomosha saxnasining badiiy jarayonlari yurtimizdagi ommaviy bayramlarning bir biriga bog'liqligi va o'ziga xosligi ilmiy va tahliliy nazariyasi haqida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, ommaviy bayram, teatrlashgan maydon tomoshalari, Navro'z, Mustaqillik, Atlas, Milliy xunarmandchilik va Gul bayramlar ssenografiyasi va badiiy bezaklar, sahnalarning o'ziga xosligi va ssenografiyasining farqi.*

Jahon san'atshunosligida ommaviy tomosha ssenografiyasi turli qadriyatlar va etnografik milliy tamoil kesimida tadqiq etilmoqda. Asosiy yangilik sifatida transformatsiyalangan sahna va konstruktivizm oqimi bo'lib, unda tasviriy yechimdan foydalanish jadallashmoqda, qolaversa zamonaviy tomosha maydonida so'ngi yillarda kubizm, ekpressionizm oqimlaridan ham foydalanish holatlari uchramoqda. Bugungi davrda ommaviy tomoshalarning badiiy mohiyatini faqatgina ssenograf tomonidan yaratilgan dekoratsiyalar emas, balki maydondagi jonli figuralarning bevosita o'ziga xos keng masshtabdagi ritmi ham aks ettirmoqda. Tarixiy-ijtimoiy voqealar ta'sirida ommaviy teatrlashgan bayramlar ssenografiyasining zamonga mos yangi tajriba loyihalarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda san'atshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyat qaratsak bayramlar ommaviy tomoshalar jamiyatni madaniy ongini rivojlantiradi. Ommaviy bayramlar xalqni kayfiyatini boshqarish, ularni birlashtirish, vatanga muhabbat tuyg'usini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga xalq sayllari, an'anaviy udumlari tashkil etilishi ijtimoiy hayotni yanada jonlantirdi. So'ngi yillarda Farg'ona vodiysida ommaviy bayram-tomosha ssenografiyasi yangicha tusga ega bo'lmoqda. Bayramlar g'oyasi, ommaviy tomoshalar tashkil etish uslubi o'zgardi. Ommaviy tomoshalar ssenografiyasi bayramning mohiyati tasviriy





yechim, milliy raqslar, liboslar, sahna bezagi yanada rivojlandi. Ommaviy tomoshalarda rassom tomoshabinga tarixiy muhitni, tarixiy shaxslarni jonlantirish, liboslar, musiqa va ommaviy raqslar bilan bayramning mohiyatini ochib bera boshladi. Ommaviy bayramlar ssenografiyasida bayram ssenariysini asosini dekoratsiya, sahna harakati va sahnadagi fazoviy bo'shliq orqali ochib bera boshladi. Biroq teatrdan farqli o'laroq ommaviy tomoshalar har safar har hil tashkil etilishi va dekoratsiyalarning yangilanishi bois ularning ssenografiyasi qarab mukammallashib boradi. Qaysidir ma'noda vaziyatga va makon, zamonga moslashadi. Shu bois ham rassomlarning ishida murakabblik kuzatiladi. Shuning uchun ham olimlar ssenograf rassomlarning ishini tahlil qilish muammoligi haqida fikr yuritishgan. „Ssenografiya masalalarining o'rganishning bu qadar sustligi, izchil olib borilmaganiga teatr rassomi ijodining murakabligi ham sabab bo'lgan, albatta¹. Ammo mavzufa yaqin bo'lgan adabiyotlarham bor masalan Dlafruz Qodirovaning „XX asr O'zbek teatrining ssenografiyas“i ilmiy adabiyot va Boxodir Yo'ldoshevning „Madaniy tadbirlarni badiiy bezash“² o'quv qo'lanmalar ssenografiya masalasiga to'xtalib o'tilgan biroq Farg'ona vodiysi ommaviy bayramlar ssenografiyasi yoritilmagan, shuning uchun ham shu mavzuga etibor qaratildi .

Farg'ona vodiysida ommaviy tomoshalarda ba'zan harakatlanuvchi dekoratsiyalarni kuzatamiz, bu esa alohida ijodiy yondashuvni talab etadi. Ommaviy tomoshalarda, maydonda tashkil etiladigan bayramlarda rassom dekoratsiyasida ifodaviy vositalardan keng foydalanadi. Dekoratsiya kompozitsiyalar o'zgacha fazoviy muhitni yaratadi. Bunday tadbirlarda avvalo, joy tanlanadi. Joy tomosha o'tkazishga mos, lozim bo'lsa tomosha g'oyasi bilan uyg'un bo'lishi kerak. Keng maydonlarda tashkil etiladigan ommaviy tomoshalarni ssenografiyasi ham murakkab ham mukammal bo'ladi. Mukammallik shundaki, rejissyor va rassom tomoshaning g'oyasini to'la-to'kis ochib berish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'ladi. Farg'ona vodiysida 1991-yildan to 2023-yilgacha tashkil etilgan bayram, ommaviy tomosha, festival va yubileylar umumiy jihatlari, tashkil etilishi, ssenografiyasiga e'tibor qaratsak, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilganligi, milliylik, milliy qahramonlar obraziga alohida e'tibor qaratilganligi, raqslarda, sahna bezagida yangilikka intilish kuchayganini kuzatishimiz mumkin. Farg'ona vodiysining har bir viloyatida bayramlar, ommaviy tomoshalar o'sha viloyat an'analari, milliy tomoshalari uyg'unligida tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Mustaqillik, Navro'z kabi milliy bayramlar ssenografiyasida umumiy o'xshashlik, umumiylik ko'zga tashlansada, alohida jihatlari va o'ziga xoslik har bir viloyatda ko'zga

¹ Кодирова Д. XX аср Ўзбек театри сценографияси.- Т.:Санъат. -2009.4-6 .

² Yuldashev B. 'Madaniy tadbirlarni badiiy bezash.-T.:O'DSMI.-2018.7-b.





tashlanadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda texnika rivojlanishi natijasida bayramlar, ommaviy tomoshalar o'tkazish saviyasi ham bir muncha yaxshilandi. Ommaviy tomoshalardagi sahna bezagi, rejissurasi va umuman ssenografiyasida bir qancha yutuqlarga erishildi. Mustaqillik davrida Farg'ona vodiysida bir qancha festivallar, bayramlar, teatrlashgan ommaviy tomoshalar, yirik sport musobaqalari tashkil etildi. Barcha ommaviy tomoshalar saviyasi, tashkillashtirilishi, tomoshabinbopligi, o'ziga xos ssenografik tajribalar bilan bir-biridan farqlanadi. Farg'ona vodiysida tashkil etilgan davlat bayramlari, ommaviy tomoshalarni so'nggi 30-yillik davrini tahlil qilsak, ulkan ishlar amalga oshirilganiga, katta tajriba to'planganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, Farg'ona vodiysida so'ngi yillarda tashkil etilayotgan ommaviy tomoshalar ssenografiyasida zamonaviy texnologiyardan keng foydalanilayotgani alohida ahamiyatli. Har bir bayram ssenariysi, sahna bezagi undagi har bir element diqqat bilan o'rganib chiqilishi, unga milliy elementlar, o'ziga xosligini payqash mumkin. Farg'ona vodiysidagi ommaviy bayramlar ssenografiyasidagi tajribasini va xoslikni ta'kidlab o'tish uchun vodiya shaharlarida tashkil etilgan ba'zi bayramlarni tahlil qilib chiqamiz. Bugungi Farg'ona vodiysi teatrlashgan ommaviy bayramlarning ssenografiyasi tajribalari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Mustaqillik ilk yilardayoq Farg'ona vodiysi xalq tomoshalari bo'yicha o'ziga yarasha tajribalariga ega. Buning uchun biz asosan istiqlolning ilk yildagi vodiydagi bayramlar ssenografiyasi haqida ilmiy tahlil qilsak bo'ladi. Farg'ona viloyat Mustaqillik bayrami 1994-yil.

Mustaqillik davrida vodiya ilk ommaviy bayram tajribasidan biri Farg'ona shahrida joylashgan sport o'yini gohida 1994-yil Mustaqillik bayrami bo'lib o'tgan, bayram dasturi asosan, harbiy, sport, bolalar, va estrada blokdan iborat bo'lgan. Ommaviy bayramning ssenografiyasining holati haqida fikr yuritsak, ochiq osmon ostidagi keng maydonning qarama-qarshi sektorga o'rnatilgan rassom tomonidan ishlangan katta masshtabdagi kompazitsiyani ko'rishimiz mumkin, unda Birinchi prezident qo'lida ko'tarib turgan yosh avlod qizaloqni tasvirlagan va uning foniga moviy rangli osmoni va salyutlar otilib turgan o'ziga xos ramziy syujetni yaratgan, atrofida rang barang bayroqlarni ko'rishimiz mumkin. Sahnaning markazi tomosha maydoni maxsus stanoklar yordamida qurilgan bo'lib, taxminan balandligi bir metr hajmining umumiy ko'rinishi o'n besh metr uzunlikda, eni yetti metrni tashkil qiladi. Maydonda bayroqdorlar jamosi fon vazifasini bajargan. Lekin umumiy ssenografiyasi soddaroq va professionallik yo'qolib qolganday, buning natijasida teatrlashgan ommaviy dasturda estrada va boshqa nomerlar ssenografiyani yutub yuborish holatini payqash qiyin emas. Shu bois ham ommaviy bayramlarda hamma elementlarning o'z o'rnini bor va har bir yo'nalishning sahnada tarzi bir xil bo'lishi darkor, shundagina professional projekt yaraladi. Ammo bu bayram istiqlolning ilk






yillaridagi birinchi bayram bo'lganligi uchun ham bugungi kundagi ommaviy bayramlar uchun ham o'ziga yarasha tajriba maktabini yaratib berdi va buni o'ziga xos jihatlari desak bo'ladi.

Universiada o'yinlari (Namangan 2000). Farg'ona vodiysidagi ommaviy bayramlarning o'ziga xos tajribalari shundaki, ilk ommaviy sport o'yinlari ham Namangan viloyatida o'tkazilgan, bu ham o'ziga yarasha tajriba hisoblanadi. Mustaqillik davrida mamlakat yoshlarini qo'llab-quvvatlash, ularni sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida tarbiyalash maqsadida bir necha bosqichli sport o'yinlari tashkil etilgan. Mazkur uch bosqichli yagona sport o'yinlari tizimi — «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalari bo'lib, o'ziga xos milliy sport musobaqasi hisoblanadi.

Dastlabki «Universiada»³ o'yinlari 2000-yili Namangan viloyati Navbahor o'yingohida ochilish va yopilish marosimi bo'lib o'tgan. O'tkazilgan musobaqalarda mingdan ortiq sportchilar qatnashgan. Musobaqa nafaqat sport o'yinlari ko'rinishida tashkil etilgan, balki yoshlar bayramiga ham aylantirilgan. Sport o'yinlari ochilishi va yopilishi marosimi katta tantanalar bilan o'tkazilgan. Ommaviy tomosha milliy raqs, sport o'yinlari kurash, dorbozlik kabilarni teatrlashgan ko'rinishi, faxrli va nomdor sportchilarni chiqishi hamda zamonaviy estrada xonandalarini chiqishlari bilan boshlangan.

Ssenografiyasida sodda bo'lganligi, ammo o'sha davrga muvofiq bir qancha yangiliklar va murakkabliklar mavjud edi. Asosan, kamalak, gullar va boshqa dekarativ havo shariga o'xshash bezaklardan tashkil topgan, maydonning markaziga palaviklar va orqa sektor fonida massofka ya'ni fon guruhi orqali tasvirlangan yurt bayrog'i va olimpiada logotipini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta, o'sha davrdagi Respublikada ilk martta Namanganda bo'lib o'tgan ommaviy tadbir uchun katta qadam va tajriba hisoblangan. Bunda ssenografiyaning shundaki, maydonning kattaligini hisobga olgan holda uni to'ldirish asosiy vazifaga aylangan. Maydonning yashilligi va undagi harakatlanuvchi bezaklar, rekvizitlar va 1-2 darajadagi raqqosalarning rangli liboslari yaqqol tasviri rangli salyutini ko'rish mumkin. Bu holatda ssenografik nazariyas bilan qaraganda, rassom ishi mukammal talab qiladi, sababi ochiq maydonda shamol oqimini o'rganish lozim va tomoshabinni o'z ijodiga maftun qilishi lozim, maydondagi tasviri muhit mukammal bo'lishi lozim. Shu o'rinda Leonid Aleksandrovichning fikrlarga qiziqsak: „Ssenografiya kerakli atmosferani (iqlimni) yaratadi, ammo bu iqlim tomoshabinda kontent talab qiladigan his-tuyg'ular spektrini aniq uyg'otishi kerak. Demak, demontajchining ishi puxta

³Manba: <https://olamsport.com/oz/news/retro-roppla-rosa-2000-yili-otkazilgan-sovgasiga-tiko-hamda-dazmol-berilgan-oliy-liga-futbolchilari-oyinagan-universiadadan-fotoreportaj>





bo'lishi kerak. Hamma narsa badiiy maqsadlarga bo'ysunishi kerak''⁴. Namangandagi ommaviy tomosha uchun maxsus sahna stadionining bir sektoriga qurilgan. Shu bilan bir qatorda barcha chiqishlar maxsus sahnadan tashqari ochiq stadionda tashkil etilgan. Bunda tomoshabinlar deyarli stadion bo'ylab yoyilgan edi. Sport o'yinlari xalqaro musobaqalardan andoza olingan holda, tashkil etilgan bo'lib, ommaviy tomosha ssenariysi ham sport ko'rgazmali chiqishlari bilan uyg'un tarzda edi. Tomoshaning ahamiyatli jihati unda olimpiya mash'alasi ham yoqilgan. Bu sport o'yinlarining o'ziga xoslik ilk marta Farg'ona vodiysida ommaviy tomoshalar tashkil etishdagi ulkan tajriba bo'lgan. An'anaviy sport o'yinlari yana ko'p bora Farg'ona vodiysida tashkil etilgan. «Universiada» o'yinlari beshinchi marta 2010-yili Farg'ona vodiysining Andijon viloyatida bo'lib o'tgan. Hukumatning vodiya bo'lgan ishonchi va e'tiboridir.

Xulosa: Farg'ona vodiysida keyingi yillarda ommaviy teatrlashgan bayramlar dasturida milliy ruhni aks ettiruvchi ssenariylar, xoreografiya, estrada, aktyor va ssenografiyasining shakllanishida vodiy teatrlarining o'rni kattaligi aniqlandi. Jumladan, Farg'ona viloyati drama teatri, Farg'ona viloyati qo'g'irchoq teatri, Farg'ona viloyati rus drama teatri, Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri, Qo'qon shahri musiqali drama teatri, Andijon viloyat musiqali drama teatri, Andijon viloyat qo'g'irchoq teatri, Namangan viloyat musiqali drama teatri, Namangan viloyat qo'g'irchoq teatri kabilar bugungi kundagi markaziy tomoshalarda ustivor mavqe egallashmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Кодирова Д. XX аср Ўзбек театри сценографияси.- Т.:Санъат. - 2009.4-6 .
2. Yuldashev B. 'Madaniy tadbirlarni badiiy bezash.-Т.:O'DSMI.-2018.7b.
3. Подосёнов Л.Художественная природа сценографии театрализованного представления: поиск образного решения .-М.:Искусство и современные художественные практики, 63 с.
4. Manba:<https://olamsport.com/oz/news/retro-roppa-rosa-2000-yili-otkazilgan-sovgasiga-tiko-hamda-dazmol-berilgan-oliy-liga-futbolchilari-oyinagan-universiadadan-fotoreportaj>

⁴ Подосёнов Л.Художественная природа сценографии театрализованного представления: поиск образного решения .-М.:Искусство и современные художественные практики, 63 с.

